



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and erro





UDK: 811.512.133'373.21

FILOLOGIYA

URBANONIMLARNING LINGVOKOGNITIV VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI



Murodbek MATNAZAROV,

Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: matnazarov.murodbek@bk.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida toponimikaning rivojlanishi, urbanonimlarning nomlanish xususiyatlari, hududda tarqalgan urbanonimlarning tiplari va alohida semantik guruhlarga mansub nomlarning shakllanish motivlari, hudud urbanonimlarining o'zaro munosabati va transonimizatsiyasi kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, urbanonim, oronim, fitonim, gidronim, antroponim, oykonim, mikrotoponim, nekronim, lingvistik omil, semantik tahlil, transonimizatsiyalashuv

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы развития топонимии в узбекском языкознании, особенности номинации урбанонимов, виды урбанонимов в регионе и мотивы образования названий, принадлежащих к конкретным семантическим группам, взаимосвязь и трансонимизация региональных урбанонимов.

Ключевые слова: ономастика, урбаноним, ороним, фитоним, гидроним, антропоним, ойконим, микротопоним, некроним, языковой фактор, семантический анализ, трансонимизация.

Annotation: This article discusses the development of toponymy in Uzbek linguistics, the naming features of urbanonyms, types of urbanonyms in the region and the motives for the formation of names belonging to specific semantic groups, the relationship and transonimization of regional urbanonyms.

Keywords: onomastics, urbanonym, oronym, phytonym, hydronym, anthroponym, oykonim, microtoponym, necronym, linguistic factor, semantic analysis, transonimization

Xorazm viloyatidagi joy nomlarini o'rganish misolida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ilm-fanni yanada rivojlantirish, milliy qadriyatlarimizni ulug'lash va kelajak avlodlarga yetkazish to'g'risidagi g'amxo'rlikini alohida ta'kidlash lozim.





O'zbek tilshunosligida toponimika masalalarining o'rganilishida rus va o'zbek olimlarining toponimika xususidagi qarashlari ham muhim hisoblanadi. Mazkur soha tadqiqida erishilgan yutuqlar Xorazm urbanonimlarini o'rganishda ham nazariy asos sifatida qabul qilindi. Keyingi yillarda o'zbek toponimikasi tilshunoslikning, xususan, o'zbek onomastikasi fanining tarkibiy qismi sifatida shakllanganligi va yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilganligi ta'kidlanib, ilmiy kuzatishlar arsenalida katta-kichik hajmdagi maqolalardan tortib, o'quv, o'quv-metodik qo'llanmalar, lug'atlar shaklidagi alohida nashrlar hamda yirik ko'lamdagi monografik tadqiqotlar paydo bo'layotganligi quvonarlidir.

Urbanonimlarni tahlil etish jarayonida ularning fonetik va grammatik tarkibini, leksik-semantik va boshqa lingvistik xususiyatlarini, diaxron va sinxron shakllarini, atalish motivlarini, toponegizlarning qaysi tilga borib taqalishini aniqlash, toponimikaning o'zbek tilshunosligi fanining alohida sohasi sifatida o'rni belgilash va tarixiy taraqqiyotini yoritish muhim vazifadir. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida toponimik unsurlarning hududiy xususiyati yoki ularning semantik tiplariga qarab, dala amaliyoti yo'li bilan ro'yxatga olish singari birmuncha murakkab ishlarni ado etish zarurati mavjud.

O'tgan asrning 60-yillarida o'zbek tilshunosligining tadqiq doirasi ancha kengaydi va unda an'anaviy grammatika, leksikologiya, semasiologiya sohalaridan o'z maqsad va vazifalariga ko'ra farqlanuvchi yangi yo'nalishlar paydo bo'la boshladi: nutq madaniyati, ijtimoiy tilshunoslik (sotsiolingvistika), lingvistik geografiya, frazeologiya, tilni statistik tadqiq qilish, eksperimental va struktural fonetika, tilni qiyosiy va chog'ishtirib o'rganish va boshqalar. Mana shu davrda paydo bo'lgan va rivojlanishga yuz tutgan yangi yo'nalishlardan birini o'zbek onomastikasi tashkil qiladi. Ma'lumki, atoqli otlarga qiziqish o'tmishda ham bo'lgan. Kishi ismlari, joy nomlarining paydo bo'lishi, etnografiyasi, ma'no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda anchagina qiziqarli fikrlar mavjud. Ammo atoqli ot materiallarini tizimli va izchil ravishda to'plash, ularni ilmiy asoslarda keng ko'lamda tahlil qilish o'zbek filologiyasida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. Bu boradagi ilk qadamlar H.Hasanov, T.Nafasov, E.Begmatovlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Keyingi yillarda o'zbek onomastikasi, ayniqsa, uning toponimika, antroponimika, etnonimika sohalari jadal rivojlandi. Endilikda o'zbek antroponimlarining materiallari qoniqarli ravishda to'plangani va tadqiq qilingani, deyarli barcha viloyatlar, bir qator tumanlar toponimiyasi monografik tarzda o'rganilganini qayd etish mumkin. O'zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlar ko'laminin kengaya borishi bu ilmiy sohaning rivoji, shakllanishi va ravnaq topishiga olib keldi. O'tgan davr davomida o'zbek ismlari va toponimlarini o'rganishga bag'ishlangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, o'nlab monografiya, to'plam va risolalar, ko'pgina maqolalar e'lon qilindi. Bularning barchasi o'zbek onomastikasi hozirda rivoj topgan mustaqil ilmiy soha ekanidan dalolat beradi.





O'zbekiston mustaqillikka erishgach, kishi atoqli otlari, toponimlari va etnonimiyasiga munosabat tubdan o'zgardi. Endilikda bu nomlar nafaqat lisoniy material, balki xalq tarixi, madaniyati va ma'naviyatining nodir merosi sifatida ham e'zozlanadigan va o'rganiladigan bo'ldi. Natijada o'zbek onomastikasining tadqiq yo'nalishlari yanada kengaydi va nufuzi oshdi. Tilimizning lug'at tarkibida atoqli otlar ma'lum bir o'rin egallaydi. Kishilarning ismlari, familiyalar, otasining ismi, mikrotoponimlar, shuningdek, geografik nomlar, planeta va yulduzlarning nomlari, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar atoqli otlar jumlasiga kiradi. Bular bir butun holda o'zbek tilining onomastik boyligini tashkil qiladi. Binobarin, onomastika so'zi asli yunoncha bo'lib, "nom qo'yish san'ati" degan ma'noni bildiradi hamda u tilshunoslikning atoqli otlarini o'rganuvchi soha nomidir. Atoqli otlar doirasiga kiruvchi nomlar orasida toponimlar salmoqli o'rinni egallaydi. Toponim so'zi asli yunoncha bo'lib, topos – joy, onoma – nom so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, joy nomi ma'nosini anglatadi. Toponimlar geografik nomlar, joy nomlari deb ham yuritiladi. Tilshunoslik fanining joy nomlarini o'rganuvchi sohasi toponimika deb yuritiladi. (Masalan, Farg'ona vodiysi toponimiyasi, Xorazm viloyati toponimiyasi kabi).

Joy nomlari juda uzoq davrning mahsuli bo'lib, til tarixi, tarixiy dialektologiya hamda tarix, etnografiya, geografiya, geologiya kabi qator fanlar uchun boy faktik material beruvchi manbadir. Joy nomlarining qachon paydo bo'lganligini, nimaga asosan shunday nom olganligini, davrlar o'tishi bilan bu nomda qanday o'zgarishlar yuz berganligini aniqlashda yuqoridagi fanlar hamkorlikda ish ko'radilar. Joy nomlarini o'rganish o'sha hududda yashovchi xalqlarning tili, tarixi, turmushi, urf-odati, kasb-koriga oid qator masalalarni oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'zbek toponimiyasini o'rganishga doir ba'zi ilk tadqiqotlar H.Hasanov qalamiga mansubdir. U ko'proq toponimlar tarixi va imlosi bilan qiziqdi. Uning "Geografik nomlar imlosi" [1.4], "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" [1.5] tadqiqotida 60 ga yaqin toponim qo'llanilgan.

O'zbek toponimikasida urbanonimiya materiali alohida olingan holda tadqiq qilingan ishlar ham mavjud. Bunday ishlar jumlasiga T.Rahmatovning Samarqand shahri va uning atroflari, J.Latipovning Marg'ilon shahri va uning atroflari, N.Oxunovning Qo'qon gruppasi rayonlari, T.Enazarovning Shahrizabz hududi toponimiyasiga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini kiritish mumkin. Urbanonimlar haqidagi ba'zi mulohazalar Tamtum qishlog'i mikrotoponimiyasi misolida S.Qorayev tomonidan aytilgan.

Urbanonimiyaga aloqador ba'zi e'tiborli mulohazalar qardosh turkiy tillardagi urbanonimlar yuzasidan bildirilgan tahlillarda uchraydi. Toponimlarning izohli lug'atlarida urbanonimiyani ham qamrash va izohlashga alohida diqqat qilinayotganini ko'ramiz. Masalan, T.Nafasovning "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" [2.22] kitobida makrotoponimlarning boy





materiallari bilan bir qatorda tepa, guzar, balandlik, buloq, ma'lum joy, mahalla, jilg'a, cho'qqi, yaylov, quduqlarning nomlari ham izohlangan. "Urbanonimlarga buloq va chashmalar, g'orlar, maqbaralarning nomlari bilan birga, ko'chalar va undagi tupiklar, ko'priklar, idora va muassasalar, magazinlar, restoranlar, dam olish joylari va istirohat bog'lari, o'tloqlar, soylar, ayrim daryo tarmoqlari, jilg'alar; arxeologik yodgorliklardan: madrasalar, turli inshootlar, minoralar, shuningdek, guzar va mahallalar, devorlar, qal'alar, saroylar, darvozalar va boshqalarning atoqli otlari kiradi. Bunday urbanonimlar o'zbek tilida minglab va bir necha minglab nomlarni tashkil qiladi" [2.4]. Muallifning g'orlar, maqbaralar, idora va muassasalar, magazinlar, restoranlar, madrasalar, turli inshootlar, minoralar, devorlar, qal'alar, saroylar, darvozalar nomini toponimiya tizimiga kiritishiga va ularni mikrotoponim deb yuritayotganiga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki bu nomlar atoqli otlarning boshqa tiplarini tashkil qiladi. Masalan, inshootlar, maqbaralar, minoralar nomi – oykodonimlarni, g'orlar nomi – spelonimlarni, yer yuzasidagi odam qo'li bilan yaratilgan obyektlar (magazin, restoran, tashkilot, muassasalar) nomi – anoykonimlarni tashkil qiladi va ular umuman shahar ichidagi obyektlar nomi – urbanonimlarga kirsada, to'liq ma'noda toponimik tipga mansub emasdir.

Toponimika - "Nomshunoslik masalalari"ning bir bo'limi. "Nomshunoslik masalalari"ning bir bo'limi bo'lgan "Toponimika"ning o'ziga xos jihatlar mavjudligi ularda toponimik ma'no borligi bilan izohlanadi[1.18]. Bu holni dunyodagi taniqli nomshunos olimlardan biri bo'lgan A.B.Superanskayaning tadqiqotlaridan, xususan uning "Teoretichiskie problemi regionalnix toponimicheskix issledovaniy" [3.32] nomli ilmiy maqolasida ham qayd etilgan. "Umumiy toponimika" yer yuzasidagi barcha topoobyektlarning nomlarini o'rganib tadqiq etadigan alohida soha hisoblanadi. Ularning majmuyi esa umumiy toponimiya deyiladi. "Xususiy toponimika"ga esa mustaqil O'zbekiston Respublikasidagi topoobyektlarning nomlarini o'rganadigan soha bo'lmish "O'zbek toponimikasi" oiddir. "O'zbek toponimikasi" xususiy toponimikaning bir ko'rinishi sifatida mavjudligini e'tirof etish o'rinli. Toponim yer, joy nomi, toponimika esa mana shularni ilmiy asoslarda o'rganib, talqin etuvchi tilshunoslik fanining alohida sohasi sanaladi. Xususiy toponimikaning bir ko'rinishi sifatida "O'zbek toponimika" [4.4]si quyidagi tarixiy-taraqqiyot jarayonini bosib o'tgan. Mamlakatimiz ko'p asrlik boy tarixga ega va undagi joy nomlarida turli davrlardagi tabiat, xo'jalik, siyosiy va iqtisodiy mavqeyi, aholisi va uning turmush tarzi, madaniyati xususida ham ma'lumatlar aks etgan. Faqat ularni tushunib, sharhlash, ilmiy tahlil qilib, ommabop shakllarda talqin etish lozim bo'ladi. Toponimistlarning fikricha, yirik topoobyektlarning nomlari qadimiy bo'ladi; kichik topoobyektlarning nomlari esa o'zgarib turadi va ko'proq shu hududda yashayotgan xalqlarning leksik birliklaridan tarkib topadi. Yuqoridagi fikrning shartliligi yana shundaki, toponimlarning qaysi tilga mansubligi ikki xil bo'ladi. Masalan, kelib chiqishiga ko'ra turkiy toponimlar va ishlatilishiga, qo'llanilishiga





ko'ra turkiy toponimlar. Shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek mikrotoponimlari orasida arabcha, forsha otlar, ya'ni so'zlar talaygina; o'zbek tilining lug'aviy tarkibida ruscha hamda rus tili orqali kirgan xalqaro so'zlar va boshqalar oz emas. Shu bilan bir qatorda madrasa, machit, rabot, kabi arabcha so'zlardan, bog', dehqon, daraxt kabi forsha so'zlardan tarkib topgan toponimlar, so'zsiz, turkiy, o'zbekcha toponimlar jumlasiga kiradi. Chunki bunday nomlar o'zbek tilining lug'aviy tarkibidan o'rin olgan so'zlardan o'zbeklar tomonidan qo'yilgan mikrotoponimlardir. Har bir tarixiy davr toponimiyasi boshqa davrlarning toponimlaridan ma'nosi, grammatik tuzilishiga ko'ra farq qiladi. Chunki har qanday hududda bo'lib o'tgan tarixiy voqea geografik nomlar shaklida muhrlanib qoladi. O'zbekiston xaritasida qadimiy tarixiy davrlarning guvohi bo'lgan ko'hna geografik nomlarni ko'plab uchratish mumkin. Antik dunyo mualliflarining asarlarida, xitoy xronikalarida, so'g'd hujjatlarida, arab va fors-tojik tarixchilarining qo'lyozmalarida ko'plab qadimiy geografik nomlar tilga olingan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuqoridagilar bilan birga tarixiy manbalarda tilga olinmagan ko'hna toponimlar son-sanoqsizdir. Kelib chiqishi, hatto, qaysi tilga mansubligi noma'lum bo'lgan geografik nomlar substrat toponimlar deyiladi. Ana shunday jumboq toponimlarni izohlab, sharhlab berish tilshunoslik fanining vazifasidir. Etimologiya o'z ahamiyati va qiyinligi jihatidan tilshunoslikning boshqa sohalari orasida birinchi o'rinda turadi. Ba'zan etimologiya semantika termini bilan bir ma'noda ishlatiladi. Respublikamiz olimlarining etimologik mashqlari asosan toponimlarning semantikasini aniqlab berishdan iborat bo'lgandir. Aslida, toponimik etimologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ma'lumki, atoqli otlarning eng mukammal turi bo'lgan toponimlar ko'pincha birdan ortiq komponentning semantikasini ochib berishning o'zi oson emas.

O'zbekiston urbanonimlari alohida nomlanish va motivlanish tizimining mavjudligi, ham tarixiy, ham bugungi davrga xos bo'lgan xususiyatlarga egaligi, shuningdek, turli toponimik hududlarga bo'linganligi bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlarning majmuyi toponimlarning etimologik tadqiq qilishning bugungacha o'rganilmagan tamoyil va usullariga, bu tadqiqda yondashilgan masalalarga, shuningdek, ularning motivlanish jarayoniga bir butun holda qarash kerakligini ko'rsatib turibdi. Toponimlar va ular lug'aviy asoslarining etimologik tahlili hamda tadqiqning yo'llari, ya'ni nazariy asoslari sifatida o'rganish zarur. Toponimlar va ular lug'aviy asoslarining etimologik tadqiqi yo'llari sifatida taqdim etilayotgan tamoyil, usul, omil hamda motivlanish masalalari boshqa fanlardagi nazariy asoslardan u yoki bu darajada farq qiladi. Har bir fan yoki sohaning o'rganish obyekti, predmeti, tushunchaviy bazasi bo'lgani kabi onomastikaning, xususan, toponimikaning ham o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bor. Bulardan ko'rinib turibdiki, muayyan fanlardagi tamoyil, usul, omil va motivlanish jihatlarini ikkinchi bir fan (yoki soha)ga tatbiq qilish o'zini oqlamaydi.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatov E., Jumayev A., Sattorov G. O'zbek onomastik terminologiyasi va uni normalash problemalari // O'zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari. T., Fan, 1986. B.8-10.
2. Begmatov E. Joy nomlari - ma'naviyat ko'zgusi. T., Ma'naviyat, 1998. 64 b.
3. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. N., 2006. 103 b.
4. Begmatov E., Uluqov N.M. O'zbek onomastikasi. Bibliografik ko'rsatkich. Namangan, 2008. 166 b.

